O'zbekistonda soliq siyosati va xorij soliq siyosatini o'rganib chiqish	1077
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Tijorat banklarining investitsion kreditlardagi garov ta'minotini takomillashtirish mexanizmlari	1081
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Digital transformation and the impact of modern technologies on agricultural management in Uzbekistan	1085
Asamov Ravshan Bakhodirovich	
"O'zmetkombinat" Ajda marketing faoliyatini takomillashtirish yo'llari	1091
Musayeva Shoira Azimovna	
Подходы к государственной поддержке сельскохозяйственных предприятий с учетом принципов инновационного управления	1096
Шаниязова Замира, Шнибаев Ислам	
Mamlakatda xalqaro turizmni samarali rivojlantirishda turizm siyosatini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari	1101
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich	
Raqamli moliya va to'lov tizimlari	1105
Maqsud Rustamov, Nurijahon Valiqulova	
Iqtisodiy tahlilda ishlab chiqarish hajmini prognozlash masalalari	1110
Qlichev Baxtiyor Pardayevich	
Kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri: Toshkent viloyati tajribasi	1116
Ajamilova Nigora Asametdinovna	
To'qimachilik korxonalarida xomashyo ta'minoti tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	1121
Umarxodjayeva Arafatxon Muzaffar qizi	
Kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik masalalarini boshqarish masalalari	1126
Jo'raqulova Muhlisa Jahongir qizi	
Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini soliq nazorati mexanizmi asosida tartibga solish masalalari	1131
Bozorov Anvar Omanovich	
Tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlarini oshirish masalalari	1139
Umarova Munira Muxitdinovna	



O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmining holati	1143
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	
Surxondaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....	1148
Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning dolzarb masalalari.....	1155
Axunova Ma'rifat Xakimovna	
Oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi	1159
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va malaka oshirishning roli.....	1166
Madalievna Nodira Miradilovna	
Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatini kompleks taqqoslama tahlili	1169
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li	
Xalqaro mehnat migratsiyasi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: samaradorlikni solishtirish	1174
Sultanov Anvar Abdullaevich	
O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq salohiyatini boshqarish	1180
Aipova Iroda Ikromovna	
Tijorat banklarida komplaens auditni tashkil etish va o'tkazishning uslubiy asoslari.....	1184
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
Scientific approach to the formation of a sustainable development strategy for industrial enterprises in the digital economy.....	1190
Maxsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni.....	1194
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini statistik va ekonometrik tahlil qilish (Andijon viloyati misolida).....	1206
Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li	
Перспективы инвесторов в осуществлении инвестиционного процесса	1212
Муртазаев Ардашер Зафар угли	
Transport korxonalarida ishchi xodimlarni barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash boshqaruvini takomillashtirish	1216
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
O'zbekiston Respublikasi yengil sanoat tashkilotlarida investitsiya loyihalarni ishlab chiqish va samaradorligini oshirish.....	1221
Xurramova Madina Mansur qizi	
Fuzzy integrals in economics.....	1228
Aymuratov Islam Kamalatdinovich	
O'zbekistonda ipoteka kreditlari bozorining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari	1233
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
Совершенствование денежно-кредитной политики центрального банка в условиях цифровой экономики.....	1238
Бердиназаров Зафар Улашович, Исаев Атабек Джурабаевич	
The role of digital assets in international finance and their impact on the global economy	1248
Juraeva Ra'no Abdullaevna, Murodaliyev Shahroz Obidjonovich	
Diversification of financial resources in commercial banks and their innovative management methods in digital transformation	1255
Xodjayeva Jeyrona Ravshonbek qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili	1262
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	1268
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions.....	1283
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	



Kredit portfelini tahlil qilish asosida tijorat banklari faoliyatini optimallashtirish yo'llari	1289
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olishni rivojlantirish	1295
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish	1300
Xonimqulov Islom Ergash o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini samarali tashkil etishda moliyaviy mablag'lardan foydalanish amaliyoti tahlili	1305
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
O'zbekistonda inflatsion targetlash orqali milliy valyuta barqarorligi ta'minlashning ahamiyati	1308
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz bank tizimining samaradorli ko'rsatkichlari	1314
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasining o'rni	1321
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Bozorov Jobir Sirojiddin o'g'li	
Ovqatlanish xizmatlarida xizmat ko'rsatish madaniyati va iste'molchi qoniqishining o'zaro bog'liqligi	1325
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning muammolari	1329
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Structural features of digital neighbourhood in the context of digital economy	1333
Gulsara Ostonaikulova	
O'zbekiston davlat va mahalliy budget tizimining zamonaviy holati va uni isloh qilish yo'nalishlari	1340
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Barqaror turizm uchun ekologik toza transport tizimlarining ahamiyati	1344
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Turizm xizmatlarini ko'rsatishda noturar joylardan foydalanish: ijara munosabatlarining huquqiy tahlili	1349
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga xos xavf-xatarlar dinamikasining ekonometrik tahlili	1354
Qodirov Ural Safar o'g'li	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XOS XAVF-XATARLAR DINAMIKASINING EKONOMETRIK TAHLILI

Qodirov Ural Safar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

u.qodirov@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston iqtisodiyotiga xos xavf-xatarlar darajasini, xususan mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining siyosiy va iqtisodiy xavf-xatar omillari bilan o'zaro bog'liqligini chiziqli regressiya modeli asosida o'rganishga, shuningdek ekonometrik tahlil va prognozlashga bag'ishlangan. Tadqiqotda O'zbekistonning 2018–2023-yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, Korruptsiyani qabul qilish indeksidagi reytingi, inflyatsiya darajasi, YaIM hajmi hamda aholi jon boshiga YaMD ko'rsatkichlari solishtirilgan. Tadqiqot Respublikamiz va xalqaro moliyaviy institutlarning hisobotlari hamda statistik ma'lumotlariga asoslanadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, xavf-xatarlar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, YaIM, Korruptsiyani qabul qilish indeksi (CPI), inflyatsiya, aholi jon boshiga YaMD.

Abstract: This article is devoted to the analysis of risk levels inherent in the economy of Uzbekistan, particularly the relationship between political and economic risk factors and the inflow of foreign direct investment (FDI), using a linear regression model. The study also includes econometric analysis and forecasting. It compares Uzbekistan's economic indicators for the period 2018–2023, including FDI volume, the country's rating in the Corruption Perceptions Index (CPI), inflation rate, GDP, and GDP per capita. The research is based on reports and statistical data from national and international financial institutions.

Key words: economic growth, risks, foreign direct investment, GDP, Corruption Perceptions Index (CPI), inflation, GDP per capita.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу уровня рисков, присущих экономике Узбекистана, в частности взаимосвязи между политическими и экономическими факторами риска и притоком прямых иностранных инвестиций на основе модели линейной регрессии. Исследование также охватывает эконометрический анализ и прогнозирование. Сравниваются экономические показатели Узбекистана за период 2018–2023 годов, включая объем прямых иностранных инвестиций, рейтинг страны в Индексе восприятия коррупции (CPI), уровень инфляции, ВВП и ВВП на душу населения. Исследование основано на отчетах и статистических данных республиканских и международных финансовых институтов.

Ключевые слова: экономический рост, риски, прямые иностранные инвестиции, ВВП, Индекс восприятия коррупции (CPI), инфляция, ВВП на душу населения.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda amalga oshirilgan sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida muhim yutuqlarga erishib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyuldagi Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli¹ Farmoni asosida 2017-yildan boshlab mamlakatda valyuta bozorining liberallashtirilishi, inflyatsiyani jilovlash maqsadida inflyatsion targetlash rejimiga o'tish va xususiy sektorning rolini oshirish kabi chora-tadbirlar mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Ammo bir vaqtda iqtisodiy o'sish kuzatilishi bilan birga, siyosiy va iqtisodiy xavf-xatarlar, xususan korruptsiya, inflyatsiya darajasi hamda global iqtisodiy noaniqliklar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu maqola milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarning TTXIga ta'sirini chiziqli regressiya modeli orqali ekonometrik tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotning asosiy maqsadi – 2018–2023-yillarga oid iqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan mamlakatga jalb etilgan TTXI hajmi, Korruptsiyani qabul qilish indeksi (CPI), inflyatsiya

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyuldagi Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni: <https://www.lex.uz/uz/docs/-3326421>



darajasi va aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (YaMD) asosida xavf-xatar omillarining o'zaro bog'liqligini aniqlash va kelajak uchun prognozlar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot, shuningdek, O'zbekistonning iqtisodiy islohotlarini davom ettirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan amaliy takliflarni ilgari suradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlar nazariyasi makrodarajadagi noaniqlik va potentsial zararni boshqarish bilan bog'liq bo'lib, O'zbekiston kabi o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun xavf-xatarlar moliyaviy beqarorlik, siyosiy o'zgarishlar, infratuzilma muammolari hamda tashqi iqtisodiy zarbalarga sezgirlik kabi omillarni o'z ichiga oladi. Xususan, mamlakatga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish yangidan shakllanayotgan yo'nalish bo'lmay, balki butun dunyo bo'ylab ko'plab olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lgan mavzu hisoblanadi.

Mamlakat riskini tahlil qilish va baholash bo'yicha dastlabki izlanishlar Bhalla tomonidan olib borilgan (Bhalla B., 1983). Keyinchalik, bu yo'nalish Erb, McGowan va Moeller kabi iqtisodchi olimlar tomonidan iqtisodiy va siyosiy risklarning baholanishiga urg'u berilgan holatda rivojlantirildi (Erb, McGowan va Moeller, 1996–2001). Talbott, Stoeveer va Rollar tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa siyosiy va iqtisodiy muhitni erkinlashtirish mamlakat riskini kamaytirishi va iqtisodiy o'sishga olib kelishini ko'rsatib beruvchi tahlillar keltirilgan (Talbott J., Roll R.W., 2001).

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar asosida Misko Dzidrov va Marjan Dzidrovlar Yevropa mamlakatlarida moliyaviy va iqtisodiy risklarni baholashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini ochib bergan (Dzidrov M., Dzidrov M., 2010). Wurglarning tadqiqotlari esa mamlakatdagi huquqiy muhitning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liqligini tahlil qilgan (Wurgler J., 2000). Shuningdek, Ryoo va Smith hamda Fisher va Sahay izlanishlarida mamlakatlarda amalga oshirilgan iqtisodiy, bozor va siyosiy islohotlar milliy risklarni kamaytirishga olib kelishi aniq ko'rsatib berilgan (Ryoo H.J., Smith G., 2002).

Milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish bo'yicha mahalliy olimlar tomonidan yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining mamlakat riskiga ta'sirini yorituvchi mavjud adabiyotlar ko'p hollarda ushbu investitsiyalarning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini tahlil qilishga qaratilgan. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakatga kiritilayotganida yuzaga keladigan yoki mavjud risklar asosida qanday o'zgarishlarga uchrashi mumkinligi borasida yetarlicha dalillar mavjud emasligini anglatadi.

Shu sababli, siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy omillarga asoslangan holda mamlakat riskini aniqlash va baholash bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borish dolzarb masala hisoblanadi. Bu jihatlar O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi past bo'lishining sabablari hamda mamlakatda faoliyat yuritayotgan mahalliy korxonalar duch kelayotgan qiyinchiliklarni chuqur tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi. Ushbu holatlar mahalliy adabiyotlarda keng yoritilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqot mavzusi sanaladi. Shunday ekan, tadqiqot natijalari ham mahalliy, ham xalqaro investorlar uchun mamlakatga investitsiya kiritishda risk darajasi maqbul yoki nomaqbul ekanligini aniqlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotiga xos xavf-xatarlar darajasini tahlil qilishda chiziqli regressiya modeli qo'llanilgan bo'lib, unda bog'liq o'zgaruvchi sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining natural logarifmi ($\ln_FDI$) tanlab olingan. Izohlovchi o'zgaruvchilar sifatida hukumatning investitsiyalarga munosabati (AHG), korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI), monetar erkinlik ($MF(INF)$) va aholi jon boshiga yalpi milliy daromad ($\ln_GNI$) ko'rsatkichlari belgilangan. CPI ko'rsatkichi Transparency International ma'lumotlariga asoslanib, siyosiy barqarorlik va shaffoflik darajasini aks ettiradi; $MF(INF)$ ko'rsatkichi Heritage Foundation ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, inflyatsiyaning proksi o'lchovi sifatida qabul qilingan; AHG ko'rsatkichi mamlakatning investitsion siyosati va qonunchilik muhitini ifodalovchi omil sanaladi; $\ln_GNI$ esa iqtisodiy rivojlanish darajasini ifodalaydi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan statistik ma'lumotlar 2018–2023-yillarni qamrab olib, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy banki, Transparency International va Jahon banki hisobotlariga asoslangan. Tahlil STATA dasturi yordamida amalga oshirilgan bo'lib, R-kvadrat va p-qiymatlari hisoblangan, o'zgaruvchilarning statistik ahamiyati aniqlangan. Ma'lumotlarning normal taqsimotga muvofiqligi tekshirilib, heteroskedastiklik mavjudligini aniqlash uchun White testi qo'llanilgan. 2024-yil uchun prognozlar ARIMA modeli asosida shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga murojaat qiladigan bo'lsak, tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinishi maqsad qilib olingan. Ayniqsa, mavjud statistik jadvaldagi ma'lumotlar tahlil etilganida mamlakat iqtisodiy holatining yildan-yilga yaxshilanib borayotganini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2018-2024 yillar)².

Ko'rsatkichlar/ yillar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
TTXI (mlrd. AQSH doll.)	0.6	2,3	1,7	2,3	2,5	2,7	2,8
TTXI o'sishi	-	283.3	-25.4	31.8	11.1	6.9	5.3
Inflatsiya sur'ati	14.3	15.2	11.1	10	12.3	8.8	9.8
YaMD, jon boshiga	2,0	2,2	2,2	2,4	2,750	3,6	3,7

Jumladan, O'zbekistonda 2021-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi qayta tiklanib, 2,3 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu esa 2020-yilga nisbatan 31,8 foizlik o'sishni tashkil etgan bo'lib, keyingi yillarda ham ushbu ko'rsatkichda o'sish tendensiyasi kuzatildi. Jalb etilgan investitsiyalar asosan iqtisodiyotning real sektor tarmoqlari va infratuzilmani yaxshilash bilan bog'liq loyihalarga yo'naltirilgan. Ushbu holat mamlakatdagi investitsion muhitning barqarorlashib borayotganidan dalolat beradi.

Jadval ma'lumotlari asosida mamlakatda inflyatsiya darajasi yillar kesimida tahlil qilinganda, bu ko'rsatkichda pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan inflyatsion targetlash rejimiga o'tilganligi va inflyatsiya sur'atini 5 foizgacha tushirish bo'yicha amalga oshirilgan izchil islohotlar samarasi hisoblanadi.

Aholi jon boshiga yalpi milliy daromad hajmi yillar kesimida tahlil qilinganda, YaIMning real o'sishi bilan birga YaMD hajmida ham izchil o'sish kuzatilgan. Biroq, 2020-yilda pandemiya oqibatida YaIM va YaMD ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatilgan bo'lsa-da, 2021–2024-yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad ko'rsatkichlari bo'yicha iqtisodiy o'sish qayd etilgan. Garchi ayrim yillarda TTXI hajmi qisqargan bo'lsa-da, YaMD o'sishda davom etgan. Bu holat mamlakat ichki resurslaridan samarali foydalanish darajasining oshgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan chiziqli regressiya modeli mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining siyosiy va iqtisodiy xavf-xatar omillari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga xizmat qiladi hamda prognozlash imkonini beradi. Mazkur modelda iqtisodiy xavf-xatarni ifodalovchi izohlovchi o'zgaruvchilar sifatida inflyatsiya darajasi va aholi jon boshiga YaMD, siyosiy xavf-xatarning izohlovchi o'zgaruvchilari sifatida esa hukumatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga munosabati (AHG) va Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) kiritilgan.

Ishlab chiqilgan ekonometrik model quyidagilardan iborat:

$$\ln_FDI_t = a_0 + a_1AHG_t + a_2CPI_t + a_3MF(INF)_t + a_4\ln_GNI_t + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bunda,

$\ln_FDI_t$ —t vaqtda O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining natural logarifmi

HCI_t —t vaqtda hukumatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan munosabati

CPI_t —t vaqtda Korrupsiyani Qabul qilish Indeksi, Transparency International ma'lumotlariga asoslangan, siyosiy barqarorlik va shaffoflikni ko'rsatadi.

$MF(INF)_t$ —t vaqtdagi inflatsiya darajasi uchun tashqi o'zgaruvchi sifatida qo'llaniladigan Monetar erkinlik

$\ln_GNI_t$ —t vaqtda aholi jon boshiga YaMDning natural logarifmi

a_0 —doimiy o'zgarmas parametr

$a_1 - a_5$ —koeffitsiyentlar

ε_t —xatolik

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Jahon banki, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval. Regressiya tahlili natijalari³

Regression statistics					
Multiple R	0,8679				
R-square	0,7533				
Adjusted R-square	0,6123				
Standard error	0,3283				
Observations	12				
Dispersion Analysis					
	df	SS	MS	F	Significance F
Regression	4	2,30406	0,57602	5,34285	0,02713
Residual	7	0,75468	0,10781		
Total	11	3,05874			
	Coefficients	Standard Error	t-statistic	P-Value	
Y-intercept	4,2978	12,8268	0,3351	0,7474	
AHG	-0,0028	0,0859	-0,0320	0,9753	
CPI	0,0666	0,0619	1,0755	0,3178	
MF(INF)	-0,1247	0,1045	-1,1931	0,2717	
Ln_GNI	1,1837	1,3040	0,9078	0,3942	

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hukumatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga munosabati (AHG) va TTXI oqimining natural logarifmi (Ln_FDI) o'rtasidagi munosabat salbiy bo'lib, statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p > 0,05$), t-statistika esa -0,03 ga teng. Xuddi shuningdek, Korruptsiyani qabul qilish indeksi (CPI) va Ln_FDI o'rtasidagi bog'liqlik ham salbiy yo'nalishga ega bo'lsa-da, statistik ahamiyatga ega emas.

Inflyatsiya darajasining proksi ko'rsatkichi sifatida ishlatilgan monetar erkinlik (MF(INF)) va Ln_FDI o'rtasida ham salbiy, ammo statistik jihatdan ahamiyatsiz bog'liqlik aniqlangan. Nihoyat, aholi jon boshiga yalpi milliy daromadning natural logarifmi (Ln_GNI) va Ln_FDI o'rtasidagi munosabat ijobiy yo'nalishda bo'lib, ammo u ham statistik ahamiyat kasb etmaydi ($p > 0,05$).

Tahlilning muhim natijalaridan biri shuki, korruptsiyani qabul qilish indeksining o'sishi mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda, yuqori inflyatsiya mamlakatning investitsion jozibadorligini pasaytiradi. Iqtisodiy o'sish esa TTXI hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kvantitativ baholash natijalariga ko'ra, CPI 1 foizga oshganida TTXI oqimi o'rtacha 0,06 foizga ortadi, aholi jon boshiga YaMD 1 foizga oshganida esa TTXI oqimi 1,18 foizga oshadi. Aksincha, inflyatsiya darajasi 1 foizga ko'tarilganda, TTXI oqimi o'rtacha 0,12 foizga kamayadi.

Ushbu natijalar xorijiy investitsiyalarga ta'sir qiluvchi omillar kompleks yondashuvni talab qilishini, shuningdek, iqtisodiy barqarorlik, institutsional islohotlar va korruptsiyaga qarshi kurashish choralariining strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston iqtisodiyotidagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimiga siyosiy va iqtisodiy xavf-xatarlar sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Mamlakatning Korruptsiyani qabul qilish indeksi (CPI) o'sishi TTXI oqimini 0,06 foizga oshirsa, aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (YaMD) hajmining 1 foizga o'sishi TTXI hajmini 1,18 foizga ko'paytiradi. Biroq inflyatsiya darajasining 1 foizga oshishi TTXI oqimini 0,12 foizga kamaytiradi. Hukumatning TTXIga nisbatan munosabati statistik jihatdan ahamiyatsiz deb topilgan ($p > 0,05$), bu esa investitsion siyosatning natijadorligini aniqlashda sifatli tahlilning afzal ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, investitsiya jalb qilishda samaradorligi yuqori bo'lgan tarmoqlarni aniqlash asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu asosda milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni kamaytirish, xorijiy investitsiyalar oqimini barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

CPI reytingini yaxshilash maqsadida korruptsiyaga qarshi kurash choralariini kuchaytirish, barcha sohalarda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash, xususan davlat xaridlari va investitsion loyihalarda raqobat muhiti yaratish, hamda soha va tarmoqlarni to'liq raqamlashtirish zarur.



Inflyatsiya darajasini nazorat ostida saqlash uchun Markaziy bankning inflyatsion targetlash rejimini kuchaytirish, foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlash va ochiq bozor operatsiyalarini kengaytirish orqali narxlar barqarorligini mustahkamlash lozim.

Aholi jon boshiga YaMDni oshirish uchun kichik va o'rta biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va eksport salohiyatini kengaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish muhim.

TTXI jalb qilish bo'yicha hukumat siyosatini takomillashtirish uchun xorijiy investorlar bilan ishlashda shaffoflikni oshirish, soliq va huquqiy bazani soddalashtirish hamda rag'batlantiruvchi mexanizmlarni, jumladan soliq imtiyozlarini kengaytirish lozim.

Rasmiy statistik ma'lumotlarning aniqligi va ochiqligini ta'minlash, natijada ishonchli ekonometrik tahlillarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi va potensial xavf-xatarlarni oldindan baholab, asosli va adolatli qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bhalla, B. (1983). How corporations should weigh up country risk. Euromoney, June, pp. 66–72.
2. Erb, C. B., Campbell, H. R., Viskanta, T. E. (1996). Political Risk, Economic Risk and Financial Risk. Financial Analysts Journal, 52(6), pp. 29–46.
3. McGowan, B., Moeller, S. E. (2009). A Model for Making Foreign Direct Investment Decisions Using Real Variables for Political and Economic Risk Analysis. Managing Global Transitions International Research Journal, 7(1), pp. 27–44.
4. Dzidrov, M., Dzidrov, M. (2010). Political and Economic Risk Analysis: Case Study of Macedonia. The Conference on Web Based Business Management, pp. 552–556.
5. Fan, Y., Stevenson, M. (2018). A Review of Supply Chain Risk Management: Definition, Theory, and Research Agenda. International Journal of Physical Distribution & Logistics Management, 8(3), pp. 205–230.
6. Hoti, S. (2005). Comparative Analysis of Risk Ratings for the East European Region. Mathematics and Computers in Simulation, 68, pp. 449–462.
7. Talbott, J., Roll, R. W. (2001). Why Many Developing Countries Just Aren't. The Anderson School at UCLA, Finance Working Paper No. 19-01.
8. Ryoo, H. J., Smith, G. (2002). Korean Stock Prices under Price Limits: Variance Ratio Tests of Random Walks. Applied Financial Economics, 12(8), pp. 545–553.
9. Wurgler, J. (2000). Financial Markets and the Allocation of Capital. Journal of Financial Economics, 58(1), pp. 187–214.
10. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillar kesimidagi tahliliy hisobot ma'lumotlari.
11. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
12. Jahon banki ma'lumotlari asosida tuzildi (2024). World Development Indicators: <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD?end=2023&locations=UZ&start=1990&view=chart>
13. Transparency International (2024). CPI for Uzbekistan: <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index/uzb>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
